O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘xatga olindi: BO-231

2026-yil _____

“TASDIQLAYMAN”
Matematika fakulteti dekani
_____ A.M.Xalxo‘jayev
2026-yil “____”-_____

MALAKAVIY AMALIYOT (4-KURS) FANINING O‘QUV DASTURI

(kunduzgi ta’lim shakli, 7-semestr)

Bilim sohasi:	500 000	- Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	540 000	- Matematika va statistika
Ta’lim yo‘nalishi:	60540100	- Matematika

Samarqand-2026

Mazkur o‘quv dasturi Matematika fakulteti Kengashining 2026-yil 28_-avgustdagi _1__-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

Mazkur o‘quv dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Matematika fakulteti “Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika” kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 26-avgustdagi_dagi 1_-sonli yig‘ilish bayoni).

Fan ma’suli:

Ostonov Q. - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Matematika fakulteti “Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika” kafedrasi dotsenti.

Taqrizchilar:

Qurbonov H. – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedrasi dotsenti (ichki);

Qarshiboyev X.Q. – SamISI Oliy matematika kafedrasi mudiri, dotsent (tashqi)

1. Fan ma’lumotlari							
Fan/modul kodi	**O‘quv yili** 2026-2027	**Semestr** 7				**ECTS – Kreditlar** 6	
Fan/modul turi majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek/rus	**O‘quv rejadagi tartib raqami** 60540100 –2806				**Haftadagi dars soatlari** 8	
Fanning nomi Malakaviy amaliyot (4-kurs)	**Jami yuklama (soat)**	**Auditoriya mashg‘ulotlari**				**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Kurs ishi**
		Maruza	**Amaliy**	**Lab.**	**Sem.**		
	180		60			120	0

2. Fanning mazmuni
Fanining maqsadi – tegishli ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o‘rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash, amaliy ko‘nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o‘ziga xos murakkab qirralari bilan, ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg‘or malakaviy tajribalar bilan tanishishdir. **Fanning vazifasi** - tegishli ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o‘rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash, amaliy ko‘nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o‘ziga xos murakkab qirralari bilan, ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg‘or malakaviy tajribalar shakllantirishdan iborat. Shuningdek, fan talabalarga matematik modellashtirish, matematik programmalashtirish, zamonaviy matematik fanlarni muvaffaqiyatli pedagog faoliyatida qo’llash uchun zarur bo‘lgan tayanch amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni beradi.

3. Fanni o‘zlashtirish uchun zarur boshlang‘ich bilimlar	
1.	Matematik analiz 1 MAM2009
2.	Algebra va sonlar nazariyasi ASNM2007
3.	Analiz asoslari AAM 2005

4. Ta’lim natijalari (TN)	
Kasbiy kompetensiyalar:	
TN1	Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o‘rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash,
TN2	Pedagog kasbining o‘ziga xos murakkab qirralari bilan, ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg‘or malakaviy tajribalar bilan tanishish

TN3	Talabalarda ehtimoliy intuitsiyani, ya'ni ularda amaliyotda uchraydigan tasodifiy hodisalarning u yoki bu tomonlarini aynan aks ettiruvchi matematik modellarni tuzishni uddalay olish qobiliyatini rivojlantirish kerak
Ko'nikmalar:	
TN5	Ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o'rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash.
TN6	Pedagog kasbining o'ziga xos murakkab qirralari bilan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg'or malakaviy tajribalar bilan tanishish
TN7	Talabalarda ehtimoliy intuitsiyani, ya'ni ularda amaliyotda uchraydigan tasodifiy hodisalarning u yoki bu tomonlarini aynan aks ettiruvchi matematik modellarni tuzishni uddalay olish qobiliyatini rivojlantirish kerak
TN8	Tashkilotlarda statistik usullarni qo'llash orqali hisobotlar yaratish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Fan maqsadi (FM)	
FM1	Tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o'rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o'ziga xos murakkab qirralari bilan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg'or malakaviy tajribalar bilan tanishishdir.

5. 2026/2027-o'quv yili 7-semestr uchun fan mazmuni va mashg'ulotlar shakli:	**Soat**
Amaliy mashg'ulotlar(A)	**60**

Malakaviy amaliyot o'quv jarayonining bevosita ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tarkibiy qismi bo'lib, barcha talabalar ushbu dasturda belgilangan tartibda topshiriqlarni bajarishlari va hisobotlarni himoya qilishlari shart. Malakaviy amaliyotning asosiy maqsadi tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o'rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o'ziga xos murakkab qirralari bilan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg'or malakaviy tajribalar bilan tanishishdir.

Malakaviy amaliyot shahar xududi va shaharga yaqin tumanlarda joylashgan salohiyatli umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim (litsey) muassasalarida o'tkaziladi. Shuningdek, fakultet ilmiy kengashi qarori bilan shahardan uzoq tumanlar ta'lim muassasalarida ham o'tkazilishi mumkin.

Malakaviy amaliyot muddati yil davomida har haftada 1 kun 15 hafta (haftalik ish yuklanmasi 4 soat va umumiy ish hajmi 60 soat). Amaliyotni o'tish vaqti: o'quv yili davomida juma, shanba kunlari.

Talabalarning malakaviy amaliyot davomidagi faoliyati 100 ballik tizimda baholanadi. Bunda dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarning bajarilish sifati, ilg'or malakaviy va axborot vositalaridan foydalanish darajasi, darsga va darsdan tashqari mashg'ulotlar, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarligi va o'tkazish saviyasi, bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyati, malakaviy faoliyatga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning yosh va psixologik

hususiyatlarini hisobga ola bilishi, jamoa ishlaridagi faolligi, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilishi e'tiborga olinadi.

1. Malakaviy amaliyot mazmuni

O'quv ishlari: ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha me'yoriy (Davlat ta'lim standartlari, matematika fani bo'yicha o'quv dasturlari va h.k.) hujjatlar, o'quv-uslubiy ishlar rejasi va bu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, matematika fani o'qituvchilarining taqvimiy ish rejalari, dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari rejasi va konspektlari, sinf jurnali, o'quvchilar bilimini baholash me'zonlari hamda ta'lim jarayonining boshqa ishchi hujjatlari bilan tanishish. Biriktirilgan o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilarning darslari va darsdan tashqari o'quv-uslubiy tadbirlarini kuzatish hamda tahlil qilish. Fan o'qituvchisining bevosita yordamida o'tiladigan darslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Mustaqil ravishda o'qituvchi nazoratida o'tiladigan tajriba darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Baholanadigan (sinov) darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Darsdan tashqari mashg'ulotlar (fakultativ dars, qo'shimcha dars, tugarak va h.k.) va o'quv-uslubiy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Boshqa amaliyotchi talabalar darslari hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarida ishtirok etish va tahlil qilish.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar: ta'lim muassasasi va sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar rejasi bilan hamda bu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish. Ta'lim muassasasi ma'muriyati va sinf rahbari tomonidan tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda faol ishtirok etish. Ma'naviyat soatlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Sinf rahbarining ish rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Sinfning va alohida tanlangan o'quvchining ruhiy holatlarini o'rganish va tahlil qilish, bu bo'yicha malakaviy-psixologik ma'lumotlarni jamlab borish, tahlil qilish va tavsifnoma tayyorlash.

Tashkiliy ishlar: ta'lim muassasasi ma'muriyatining ish rejalari va ish uslublari, ichki tartib-qoidalar, malakaviy kengash va uslubiy birlashmalar ish rejalari bilan tanishish, ularning yig'ilishlarida ishtirok etish. Xo'jalik va tadbirkorlik ishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish.

Hisobot tayyorlash: amaliyot davomida reja bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, duch kelingan qiyinchilik va muammolar hamda ularni bartaraf etish uchun ko'rilgan choralar, amaliyot jarayoni bo'yicha kundalikda qayd etib borilgan fikr-mulohazalar asosida hisobot tayyorlash. Hisobot himoyasiga tayyorgarlik ko'rish (taqdimot tayyorlash).

2. Malakaviy amaliyot bosqichlari

2.1. Malakaviy amaliyotga tayyorgarlik ko'rish (amaliyot oldidan): fanni o'qitish metodikasi, malakaviya va psixologiya hamda kasbiy fanlar bo'yicha bilimlarni takrorlash, amaliyot dasturi bilan tanishish, mas'ul metodist o'qituvchilardan kerakli maslahatlarni olish, amaliyot oldi konferensiyasiga qatnashish.

2.2. Tanishuv amaliyoti (2 kun-2 hafta): ta'lim muassasasining joylashishi, tuzilmasi, hayoti, muhiti, rahbariyati va jamoasi, matematika fani o'qituvchilari va sinf rahbari bilan tanishish. Rahbariyat tomonidan biriktirilgan fan o'qituvchisi va sinf rahbari ish rejasi, matematika fanlari bo'yicha kalendar reja, konspektlar, sinf jurnallari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tanishish, sinf bilan tanishish. Algebra va geometriya fanlari o'qituvchilarining darslariga qatnashish.

2.3. Passiv (kuzatish, ish o'rganish) amaliyot (4 kun-4 hafta): matematika fani o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilar darslariga va darsdan tashqari mashg'ulotlariga qatnashish hamda tahlil qilish, fan o'qituvchisi yordamida va nazoratida o'tiladigan tajriba

darslari va darsdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlari hamda tarbiyaviy tadbirga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tish. Biriktirilgan sinf va alohida tanlangan o‘quvchi ustida malakaviy va psixologik kuzatishlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish.

2.4. Faol amaliyot (7 kun-7 hafta): biriktirilgan matematika fani o‘qituvchisi va metodistning nazoratida o‘tiladigan dars va darsdan tashqari o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tish, sinov darslariga va darsdan tashqari mashg‘ulot hamda tarbiyaviy tadbirlarga mustaqil tayyorgarlik ko‘rish va o‘tish, boshqa amaliyotchi talabalar darslariga qatnashish va tahlil qilish, malakaviy va psixologik kuzatishlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish, hisobot hujjatlarini tayyorlab borish.

2.5. Amaliyotni yakunlash (2 kun- 2 hafta): malakaviy amaliyot hisobotini tayyorlash, hisobotga qo‘shib topshiriladigan hujjatlarni tayyorlash, ta’lim muassasasi malakaviy kengashida amaliyot natijalari bo‘yicha hisobot berish, ta’lim muassasasida malakaviy amaliyotning yakuniy konferensiyasiga qatnashish, hisobotni taqdimot shaklida himoya qilish.

3. Malakaviy amaliyot davomida bajariladigan ishlarning haftalar bo‘yicha taqsimoti

Hafta	Amaliyot bosqichlari	Ish mazmuni	Ish yuklamasi
1-2	Tanishuv amaliyoti	1. Ta’lim muassasasi rahbariyati, fan o‘qituvchisi, sinf rahbari, uslubiy birlashma boshlig‘i, metodist o‘qituvchilar ishtirokidagi tashkiliy konferensiyada ishtirok etish. 2.Ta’lim muassasasi joylashishi, tarkibiy tuzilmasi, hayoti va muhiti, jamoasi, matematika fani o‘qituvchilari, biriktirilgin sinf va sinf rahbari bilan tanishish. 3. Tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar, rahbariyat, fan o‘qituvchisi va sinf rahbarining ish rejasi, matematika fanlari bo‘yicha taqvimiy rejalar, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyalari va konspektlari, sinf jurnallari, o‘quvchilar bilimini baholash me’zoni va o‘quv-tarbiyaviy jarayon bo‘yicha boshqa me’yoriy hujjatlar bilan tanishish.	8 s
3-4	Passiv (kuzatuv) amaliyot	1. Biriktirigan matematika fani o‘qituvchisi va boshqa tajribali o‘qituvchilarning darslariga (18-20 ta) va darsdan tashqari mashg‘ulotlariga (8-10 ta) qatnashish hamda tahlil qilish. 2. Ma’naviyat soatlari va sinf rahbarining boshqa darsdan tashqari o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarida ishtirok etish hamda tahlil qilish.	8 s
5-6	Passiv (ish o‘rganish) amaliyot	1. Darslarga va darsdan tashqari mashg‘ulotlarga hamda tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish yo‘l-yo‘riqlari, darsni rejalashtirish va o‘tish metodlari, dars va darsdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlari konspektini tayyorlash metodlarini o‘rganish.	8 s

		2. O‘qituvchi yordamida darslarga (2-3 ta) va darsdan tashqari o‘quv mashg‘uloti va tadbirlariga (1-2 ta) tayyorgarlik ko‘rish, konspekt (reja) yozish va o‘tish. 3. Sinf rahbari yordamida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni (2-3 ta) tashkil etish va o‘tkazish.	
7-9	Faol amaliyotni boshlash	1. O‘qituvchi nazoratida mustaqil o‘tiladigan tajriba darslariga (2-3 ta) tayyorgarlik ko‘rish, konspekt yozish va o‘tish. 2. O‘qituvchi nazoratida mustaqil o‘tiladigan darsdan tashqari mashg‘ulotlar va o‘quv-uslubiy tadbirlarga (2-3 ta) mustaqil tayyorgarlik ko‘rish, konspekt (reja) tayyorlash va o‘tkazish. 3. O‘qituvchi nazoratida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish. 4. O‘qituvchi nazoratida kamida bitta sinov darsiga tayyorgarlik ko‘rish, konspekt yozish va o‘tish.	12 s
10-11	Faol amaliyot	1. Sinov darslari (kamida 2 ta), darsdan tashqari sinov mashg‘ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga (kamida 2 ta) mustaqil tayyorgarlik ko‘rish, konspekt yozish va o‘tkazish. 2. Boshqa talabalarning sinov darslari va darsdan tashqari tadbirlarida va ularning tahlilida (4-6 ta) ishtirok etish. 3. Malakaviy va psixologik kuzatishlar natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ib, tahlil qilib borish.	8 s
12-13	Faol amaliyot	1. Sinov darslari (kamida 2 ta), darsdan tashqari sinov mashg‘ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga (kamida 2 ta) mustaqil tayyorgarlik ko‘rish, konspekt yozish va o‘tkazish. 2. Boshqa talabalarning sinov darslari va darsdan tashqari tadbirlarida va ularning tahlilida (4-6 ta) ishtirok etish. 3. Malakaviy va psixologik kuzatishlar natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ib, tahlil qilib borish.	8 s
14-15	Faol amaliyot	1. Sinov darslari (kamida 2 ta), darsdan tashqari sinov mashg‘ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga (kamida 2 ta) mustaqil tayyorgarlik ko‘rish, konspekt yozish va o‘tkazish. 2. Boshqa talabalarning sinov darslari va darsdan tashqari tadbirlarida va ularning tahlilida (4-6 ta) ishtirok etish. 3. Malakaviy va psixologik kuzatishlar natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ib, tahlil qilib borish.	8 s

	Amaliyotni yakunlash	1. Hisobotni rasmiylashtirish. 2.Hisobotga ko‘shib topshiriladigan hujjatlarni tayyorlash va tartibga keltirish. 3. Ta’lim muassasasida malakaviy amaliyotning yakuniy konferensiyasida ishtirok etish. 4. Hisobot himoyasiga tayyogarlik ko‘rish.	
		JAMI	**180 s**

4. Malakaviy amaliyot davomida amalga oshiriladigan kundalik ishlar:

1. Kundalik yuritish (reja bo‘yicha bajarilgan kunlik ishlar, o‘rganilgan yangi ma’lumotlar, duch kelingan muammolar va uni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar, malakaviy amaliyot samaradorligini oshirish bo‘yicha fikr-mulohazalar va boshqalar yozib boriladi).
2. Sinf va alohida tanlangan o‘quvchi ustida malakaviy-psixologik kuzatish olib borish, uning natijalari bo‘yicha ma’lumot to‘plash va tahlil qilib borish.
3. Ta’lim muassasasi malakaviy kengashlari va fan bo‘yicha uslubiy birlashma yig‘ilishlarida faol ishtirok etish.
4. Ta’lim muassasasi miqyosidagi yig‘ilishlar, ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishda faol ishtirok etish.
5. Amaliyot davomida paydo bo‘lgan kasbiy muammolarni aniqlab, tahlil qilish va hal etib borish.
6. Ta’lim va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o‘tkazish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganib borish va tadbiq etish.

5. Malakaviy amaliyot bo‘yicha hisobotning namunaviy shakli va mazmuni

5.1. Titul varaqasi: ta’lim yo‘nalishi, kurs, guruh, talaba, uslubchi o‘qituvchi, fan o‘qituvchisi, guruh rahbarining ism-sharifi, amaliyot o‘tilgan ta’lim muassasasi, amaliyot muddati.

5.2. Hisobot mazmuni: amaliyot davomida bajarish belgilangan tadbirlar va uning ijrosi bo‘yicha amalgan oshirilgan ishlar: amaliyotni o‘tish hamda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va olib borish bo‘yicha tanishib chiqilgan me’yoriy va ishchi hujjatlar, biriktirilgan sinf va fan o‘qituvchisi, kuzatilgan va tahlil qilingan darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar haqida ma’lumotlar, o‘qituvchi yordamida va nazoratida o‘tilgan darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar (fakultativ dars, tugarak, qo‘shimcha dars va h.k) hamda tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha ma’lumotlar, mustaqil tayyorgarlik ko‘rilgan va o‘tkazilgan darslar hamda darsdan tashqari o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar hamda ularning baholanishi bo‘yicha ma’lumotlar, ishtirok etilgan yig‘ilishlar, kengashlar va boshqa ommaviy tadbirlar haqida ma’lumotlar, biriktirilgan sinf va alohida tanlangan o‘quvchi ustida o‘tkazilgan malakaviy va psixologik kuzatishlar hamda uning natijasi, ota-onalar bilan olib borilgan ishlar, sinf bilan o‘tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar va ma’naviyat soatlari, o‘rganilgan yangiliklar, malakaviy va axborot texnologiyalari, tarbiyaviy usullar bo‘yicha ma’lumotlar.

5.3. Xulosa va takliflar: malakaviy amaliyot jarayonining tashkil etilish va o‘tkazilish saviyasi, malakaviy amaliyot talabaga nima berganligi, duch kelingan qiyinchilik va muammolar hamda uni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar, pedagogok amaliyotning sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha fikr-mulohazalar.

6. Hisobotga qo‘shib topshiriladigan hujjatlar

6.1. Kundalik
6.2. Fan bo‘yicha o‘quv dasturi, taqvimiy va tarbiyaviy ishlar rejasi

6.3. Fan o‘qituvchisi va boshqa tajribali o‘qituvchilarning kuzatilgan darslari tahlillari.
6.4. Amaliyotchi talabalarning kuzatilgan darslari tahlili.
6.5. Sinov darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar konspektlari.
6.6. Sinov darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlari tahlili bayonnomasi.
6.7. O‘tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar va ma’naviyat soatlari bayonnomalari.
6.8. Sinfga va o‘quvchiga tavsifnoma.
6.9. Ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan amaliyotchi talabaga berilgan tavsifnoma.

7. Malakaviy amaliyot davrida dars mashg‘ulotlari sifat ko‘rsatgichini baholash me’zoni

Guruh_____Fan_____

Mavzu_____
Amaliyotchi talaba_____ sana_____
Tahlil qiluvchilar: 1._____ imzo_____
2._____ imzo_____
3._____ imzo_____

№	Mashg‘ulotga (o‘qituvchi) oid ko‘rsatkichlar mazmuni	Yuqori baho	Qo‘yilgan baho	Izoh
	1. Darsning tashkiliy ko‘rsatkichlari			
1	Darsning belgilangan vaqtda boshlanishi	5		
2	Sinfning darsga tayyorlik holati	5		
3	Sinf jurnalini rismiylashtirish holati	5		
4	Davomat ko‘rsatkichi	5		
	2. Darsning o‘quv-uslubiy ta’minot darajasi			
5	Mavzuga doir o‘quv-uslubiy adabiyotlarning mavjudligi	5		
6	Ko‘rgazmali va tarqatma materiallar mavjudligi	5		
7	Mavzuning taqvim rejaga mosligi	5		
	3. Darsning ilmiy-uslubiy ko‘rsatkichlari			
8	Oldingi mavzuni o‘zlashtirish sifatini tekshirish	5		
9	Yangi mavzuni oldingi mavzular bilan bog‘lanishi	5		
10	Mavzu dolzarbligini asoslash va hayot bilan bog‘lash	5		
11	Faktlarning asoslanishi	5		
12	O‘quvchilarning faollik darajasi	5		
13	O‘quvchilarning mavzuni qabul qilish darajasi	5		
14	YAngi mavzuni o‘zlashtirish sifatining nazorati	5		
	4. Darsning bayon usuli			
15	Dars bayon usulining sifat darajasi	5		
16	Darsning interfaollik darajasi	5		
17	Darsda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi	5		
18	Darsda ilg‘or ped. tex-lardan foydalanish darajasi	5		
19	Darsning ko‘rgazmalilik darajasi	5		
20	O‘qituvchining nutq madaniyati	5		
	5. Darsning xulosa qismi			
21	Mavzu bo‘yicha xulosalar va topshiriq berilishi	5		
22	O‘tilgan mavzo‘ bo‘yicha o‘quvchilar bilimining baholanishi	5		
23	Kelgusi dars mavzusi bo‘yicha ma’lumot berilishi	5		
	6. Darsning va o‘qituvchining sifat darajasi			
24	Darsning tarbiyaviylik darajasi	5		
25	Darsning amaldagi talablarga javob berish darajasi	5		
26	O‘qituvchining fan bo‘yicha bilim darajasi	5		
27	O‘qituvchining malakaviy mahorat darajasi	5		
	7. O‘qituvchi va dars sifati yuzasidan qo‘shimcha fikr-mulohazalar			

6. Mustaqil ta'lim topshiriqlari		120
	1-Mustaqil ta'lim topshiriqlari	
1	Kundalik	4
2	Fan bo'yicha o'quv dasturi, taqvimiy va tarbiyaviy ishlar rejasi	4
3	Fan bo'yicha taqvimiy taqvimiy va tarbiyaviy ishlar rejasi	4
4	Fan o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilarning kuzatilgan darslari tahlillari.	4
5	Amaliyotchi talabalarning kuzatilgan darslari tahlili	4
	2-Mustaqil ta'lim topshiriqlari	4
7	Sinov darslari konspektlari.	4
8	Darsdan tashqari mashg'ulotlar rejalari	4
9	Sinov darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlari tahlili	4
10	O'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar va ma'naviyat soatlar	6
	3-Mustaqil ta'lim topshiriqlari	6
12	Me'yoriy va ishchi hujjatlar bo'yicha bilimlari	6
13	Fan o'qituvchisi va amaliyotchi talabalar darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tahlil qilish	6
14	Dars va darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlari va tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish saviyasi	6
15	Ishga ijodiy yondashish	6
16	Yangi axborot va malakaviy texnologiyalardan foydalanish	6
	4-Mustaqil ta'lim topshiriqlari	6
18	Ta'lim muassasasi miqyosidagi ma'naviy-ahloqiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtiroki,	6
19	Biriktirilgan sinf bilan o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar va ma'naviyat soatlari saviyasi	6
20	Sinf ustida o'tkazilgan malakaviy-psixologik kuzatishlarning tahlili.	6
21	Alohida tanlangan o'quvchi ustida o'tkazilgan malakaviy-psixologik kuzatishlarning tahlili	6

7. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- Ma'ruzalar;
- amaliy, laboratoriya ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits-so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;

- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

8. Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

9. Talabala bilimini baholash mezoni

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasawurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lsa;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo'llash olish;
- tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish.

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga harakat qilgan bo'lsa.

d) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rilmagan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga doir hech qanday tasawurga ega bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajarmagan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha matnlarni boshqalardan ko‘chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo‘yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

10. Foydalanilgan adabiyotlar	
	Asosiy adabiyotlar
1.	Tojiyev M., Barakayev M. Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2018
2.	Matematika o‘qitish metodikasi (Mustaqil la’lim) [Matn] : o‘quv qo'llanma / M. Barakayev, A. Shamsliyev, G. G’oyibnazarova, H. O'rinov, O ‘. Halimov. — Toshkent: «O‘zbekiston I'aylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. - 160 bet.
3.	Nazarov X.I., Ostonov Q., Tilavov R. A. Matematira tarixi. SamDU, 2023
4.	A.Abdushukurov, T.Zuparov. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. Darslik, Tafakkur-Bo‘stoni, Toshkent, 2015.
5.	J.Abdullayev, O’.Quljonov. Ehtimollar nazariyasidan masalalar to’plami. O’quv qo’llanma. Sardir poligraf nashriyoti. Samarqand 2026 yil.
	Qo‘shimcha adabiyotlar
6.	"Einführung in das mathematische Arbeiten" by H. Schichl and R. Steinbauer (3. Auflage, Springer Verlag, 2018)
7.	Alixanov S. Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi” 2008.
8.	Muxamedov M. Elementar matematikadan qo‘llanma. Toshkent, “O‘qituvchi” 1984.
9.	Saxaev M. Elementar matematikadan masalalar to‘plami. O‘quv qo‘llanma. Toshkent,Universitet, 1973.
10.	Umumta’lim maktabi matematika darsliklari, 2026.
11.	Otajonov R.K. Geometrik yasash metodlari.Toshkent:O‘qituvchi, 1978.
12.	Yunusova D.I. «Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarnT.: «Fan va texnologiyalar» , 2011, -200 b.
	Axborot manbalari
9.	http://www.allmath.ru/
10.	http://www.mcce.ru/
11.	http://lib.mexmat.ru/
12.	http://www.ziyonet.uz/

13.	http://www.webmath.ru/

11.	**O‘QUV DASTURINING QIYOSIY TAHLILI**
	O‘quv dasturi xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida: -212 o‘rinni egallagan Florida universitetining matematika fakulteti (instituti) statistika (fan yoki fanlar nomi) fani dasturi; -119 o‘rinni egallagan Rice universiteti matematik statistika dasturlari tahlil qilinib, o‘quv dasturiga yangi 1 ta mavzular bilan boyitilib, Regression modellar kabi yangiliklar kiritildi.
	Xalqaro OTM dasturlariga linklar: 1. https://gatorevals.aa.ufl.edu 2. https://dss.rice.edu

Kafedra mudiri: **dots.O‘.N. Quljonov**

Fan mas’uli: **dots. Q. Ostonov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universitetining 60540100 – Matematika ta'lim yo'nalishi 4-kurs kunduzgi bo'lim talabalari uchun "Malakaviy amaliyot" bo'yicha fan dasturiga

TAQRIZ

Mazkur fan dasturi matematika fakulteti 60540100 – Matematika ta'lim yo'nalishi ta'lim yo'nalishi 4-kurs kunduzgi bo'limida tahsil olayotgan talabalar uchun "Malakaviy amaliyot"dan mo'ljallangan bo'lib, ushbu fan dasturida fanining maqsadi – tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o'rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o'ziga xos murakkab qirralari bilan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg'or malakaviy tajribalar bilan tanishishdir.

Fanning vazifasi - tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o'rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o'ziga xos murakkab qirralari bilan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg'or malakaviy tajribalar shakllantirishdan iborat. Shuningdek, fan talabalarga matematik modellashtirish, matematik programmalashtirish, zamonaviy matematik fanlarni muvaffaqiyatli pedagog faoliyatida qo'llash uchun zarur bo'lgan tayanch amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni berishi haqida materiallar kiritilgan.

Bundan tashqari, asosiy amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (60 soat), mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar (180 soat), Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu fan dasturi 60540100 – Matematika ta'lim yo'nalishi ta'lim yo'nalishi 4-kurs kunduzgi bo'lim talabalari uchun "Malakaviy amaliyot" bo'yicha to'la mos keladi deb hisoblayman hamda bu fan dasturini o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

TAQRIZCHI (tashqi):
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Oliy matematika kafedrasi mudiri, dotsent
X.Q.Qarshiboyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universitetining 60540100 – Matematika ta'lim yo'nalishi 4-kurs kunduzgi bo'lim talabalari uchun "Malakaviy amaliyot" bo'yicha fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi matematika fakulteti 60540100 – Matematika ta'lim yo'nalishi ta'lim yo'nalishi 4-kurs kunduzgi bo'limida tahsil olayotgan talabalar uchun "Malakaviy amaliyot"dan mo'ljallangan bo'lib, ushbu fan dasturida fanining maqsadi – tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o'rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o'ziga xos murakkab qirralari bilan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg'or malakaviy tajribalar bilan tanishishdir.

Bu amaliyotning vazifasi - tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tadbiq qilishga o'rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o'ziga xos murakkab qirralari bilan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg'or malakaviy tajribalar shakllantirishdan iborat. Shuningdek, fan talabalarga matematik modellashtirish, matematik programmalashtirish, zamonaviy matematik fanlarni muvaffaqiyatli pedagog faoliyatida qo'llash uchun zarur bo'lgan tayanch amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni berishi haqida materiallar kiritilgan.

Fan dastirida asosiy amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (60 soat), mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar (120 soat), malakaviy amaliyot o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Fan dasturi 60540100 – Matematika ta'lim yo'nalishi ta'lim yo'nalishi 4-kurs kunduzgi bo'lim talabalari uchun "Malakaviy amaliyot" bo'yicha to'la mos keladi deb hisoblayman hamda bu fan dasturini o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

TAQRIZCHI (ichki):
Sharof Rashidov nomidagi Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedrasi dotsenti **H.Qurbonov**